Materiallar to'plami · Conference Proceedings
"ZAMONAVIY TADQIQOTLAR VA BARQAROR RIVOJLANISH" respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi
04 August 2026
FILOLOGIYA

SUYISH MAYDONINING HURMAT MAYDONIGA MUNOSABATI

Durdonaxon MIRZAZODA*
O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti mustaqil izlanuvchisi
✉ mirzazodadurdona@gmail.com

ANNOTATSIYA

Ushbu tezisda suyish ma'no maydonining hurmat ma'no maydoniga munosabati yoritilgan. Ingliz va o'zbek tillarida hurmat ma'no maydoniga oid ta'riflar berilgan, misollar keltirilgan va tahlil etilgan.

Kalit so'zlar

suyish, maydon, hurmat, ingliz tili, o'zbek tili, munosabati.

DOI: 10.5281/zenodo.21743798

KIRISH

Ongda suyish funksional-semantik maydoni (FSM) ga eng yaqin va yondosh funksional-semantik maydoni (FSM)lardan biri, bu –hurmat funksional –semantik maydonidir.

Hurmat maydoni asosiy ma'nolari bilan bir qatorda, suyish ma'nosini muayyan darajada ifodalash xususiyatiga ega. Xuddi mana shu xususiyat hurmat maydonini suyish maydoniga yondosh maydon sifatida tadqiq etishga asos bo'ladi.

Asosiy qism. O'zbek tilining izohli lug'atida[O'TILda] suyish so'ziga quyidagicha izoh berilgan: **SUYMOQ** s.t. **1** Yaxshi ko'rmoq, **sevmoq**. **2** Erkalamoq, erkalatmoq. [11:584]

Sevmoq so'ziga esa O'TILda quyidagicha izoh berilgan: **SEVMOQ 1** Ishq-muhabbat tuyg'usi bilan munosabatda bo'lmoq; ko'nil qo'ymoq, yaxshi ko'rmoq. U Muqaddamni sevganini, qattiq sevganini tushundi. **2** Mehr-muhabbat, sadoqat ko'rsatmoq. Vatanni sevmoq. **3** Yoqtimoq, yaxshi ko'rmoq. Musiqani sevmoq**.** [11:471]

Demak, suymoq kimga yoki nimaga mehr-muhabbat, mehr-sadoqat tuyg'usi bilan munosabatda bo'lmoq, kimnidir, nimanidir yoki qayernidir yaxshi ko'rmoq, sevmoq, yoqtirmoqdir va ushbu ma'nolar suyish FSMning asosini tashkil etadi.

Suyish FSMga eng yaqin va yondosh FSMlardan biri hurmat funksional-semantik maydoni (HFSM)dir. O'zbek tilshunosligida hurmat ma'no maydoni maxsus o'rganilgan. [8; 14] O'TILda hurmat so'ziga shunday izoh berilgan: **"HURMAT** 1.Kimsa yoki narsaga bo'lgan qadrlash, ulug'lash tuyg'usi; shunday tuyg'uli munosabat". **[12: 563]** "The Oxford Dictionary of the English Language" lug'atida qayd etilishicha esa, "respect – to have respect for a person or thing" [13:397] "hurmat – shaxs yoki narsaga bo'lgan iltifot ko'rsatish demakdir". Iltifot ko'rsatish esa himmat, diqqat-e'tibor bilan yaxshi munosabatda bo'lish degan ma'noni anglatadi.[10:324] Demak, shaxsni qadrlash, ulug'lash, e'zozlash, ehtirom ko'rsatish, yuksak e'tiborlilik bilan munosabatda bo'lish hurmat tushunchasining asosini tashkil etadi va shaxsning boshqalarga nisbatan ijobiy munosabatlarni ifodalaydi.

G.Toirova o'zining o'zbek pragmalingvistikasiga bag'ishlangan o'quv lug'atida hurmatning quyidagi oltita muhim qoidasini sanab o'tgan: "1.Xushmuomalalilik, nazokat, odob qoidasi (suhbatdosh urinishlari "sarfi"ni kamaytir; uning foydasini ko'paytirishga harakat qil)". 2. Himmat, olijanoblik qoidasi (o'z foydan-

gni kamroq ko‘zla, barcha “sarf”ni o‘z zimmangga ol). 3.Ma’qullash, tahsin qoidasi (o‘zgalarni yomonlama, g‘iybat qilma, koyima). 4.Kamtarlik, kamsuqumlik, oydinlik qoidasi (o‘z-o‘zingni maqtashni keskin kamaytir). 5. Rizolik, murosasozlik qoidasi (totishuvdan qoch, murosaga intil). 6. Xush ko‘rish, mayl, yoqtirish qoidasi (hayrixoh, oqko‘ngil bo‘l). [9:58-59]

O‘zbek tilida hurmat ma’nosi asosan **-lar, -xon, -jon** affikisi (dadamlar, onaxon, tog‘ajon), **siz, ular** olmoshlari yordamida hosil bo‘ladi. [6; 15; 3; 7] Xususan, ko‘plikni ifodalovchi alohida -lar (kitoblar) va hurmatni ifodalovchi alohida -lar (otamlar, onamlar) affiksi mavjud va ular omonim affikslar sanaladi. [3:123] *Masalan:* ***– Otaxon, sizning*** *gapingizni hech qaytarolmayman, – dedi direktor.. [5:36] –* ***Oyim keldilar****! – dedi Bashorat opam...* [2:125] *Men buvimni yaxshi ko‘raman.* ***Ular*** *ham meni sevadi. [4:245]*

Shuningdek, hurmat ma’nosini ifodalovchi *janob, taqsir* so‘zlari murojaat so‘z sifatida qo‘llanadi. *Janob* davlat va hukumat boshliqlariga nisbatan, *taqsir* so‘zi ko‘proq diniy ilmlilik darajasi yuqori turuvchi kishilarga nisbatan ishlatiladi. [1:31] *Opoqi* so‘zi esa keksa kishilarga nisbatan hurmatni ifodalashda qo‘llaniladi.[7:246]

Ingliz tilida hurmat ma’nosini ifodalovchi so‘z va so‘z birikmalari sifatida quyidagilarni ko‘rsatish mumkin: *dear, respected, Mister (Mr.), Missis (Mrs.), Miss (Ms), Sir, Madam, Lord, Ladies and Gentlmen, Yours sincerely, Yours faithfully, Your Majesty, Your excellency* va b.lar. Masalan: **Dear Mr** Potter... [16: 15-16] Snape, **m-my Lord**? [18:524] **My dear Prime Minister**, are you ever going to tell anybody? [17:5]

XULOSA Yuqoridagilardan ko‘rinadiki, hurmat ma’nosining tarkibiy elementlari sifatida *xush ko‘rish, yoqtirish* semalari mavjud. Aynan mana shu sema (*yoqtirish, hush ko‘rish*) hurmat so‘zini ma’no jihatdan suyish so‘zi bilan bir nuqtada kesishuvini ta’minlaydi. Bu esa ularning ma’no jihatdan bir-biriga yaqin va yondosh ekanligini anglatadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Akbarova Z. O’zbek tilida murojaat shakllari. – T.: Akademnashr, 2015.
2. Hoshimov O‘. Dunyoning ishlari. – Toshkent: Global books, 2021. 125-b
3. Rahmatullayev Sh. Hozirgi adabiy o’zbek tili. (darslik) –T.: Universitet, 2006.
4. Sayfullayeva R.R., Mengliyev B.R., Boqiyeva G.H., Qurbonova M.M., Yunusova Z.Q., Abuzalova M.Q. Hozirgi o’zbek adabiy tili. O’quv qo’llanma. – T.: Fan va texnologiya, 2009. – 245-б
5. To‘xtaboyev X. Sariq devni minib: sarguzasht roman. – Toshkent: Global books, 2021. – 36-b
6. Ғуломов А.Ўзбек тилида кўплик категорияси. – Тошкент, Ўздавнашр. 1944. – 56-б.;
7. Замонавий ўзбек тили. Морфология. // Масъул муҳаррир: фил. фан. док. Р.Р. Сайфуллаева. – Тошкент, 2008. – 522 б.
8. Маткаримова А. Ҳурмат семантик майдонини ифодаловчи тил воситаларининг лингвопрагматик ва лингвокультурологик хусусиятлари: Фил. фан. бўй. фалс. д-ри (PhD)... дис. автореф. – Андижон, 2021. – 29 б.
9. Тоирова Г.И. Прагмалингвистика. Ўқув луғати. – Тошкент: Akademnashr, 2016. – 58-59-б
10. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. 2-том. // З.М. Маъруфов таҳрири остида. – М.: Русский язык, 1981. – 324-б.
11. Ўзбек тилининг изоҳли луғати: 80000 га яқин сўз ва сўз бирикмаси. Ж. III. Н – Т/ Масъул муҳаррир А.Мадвалиев. – Т.: “O‘zbekiston nashriyoti” давлат унитар корхонаси, 2020. – 584-б.
12. Ўзбек тилининг изоҳли луғати: 80000 га яқин сўз ва сўз бирикмаси. Ж. V. Шукрона – Ҳ/ Масъул муҳаррир А.Мадвалиев. – Т.: “O‘zbekiston nashriyoti” давлат унитар корхонаси, 2020. – 563-b.
13. Хокинс, Дж. Толковый словарь английского языка Oxford=Oxford Concise School Dictionary: 40 000 слов и выражений / Дж. Хокинс, Э. Делаханти, Ф. Макдональд. – М.: Астрель, АСТ, 2008. – I-V, с. 397
14. Ҳожиева Х.Я. Ўзбек тилида ҳурмат майдони ва унинг лингвистик нутқий хусусиятлари: Фил. фан. номз. …дисс. автореферати. – Самарқанд, 2001. – 24 б.;
15. Шоабдураҳмонов Ш., Асқарова М., Ҳожиев А., Расулов И., Дониёров Х. Ҳозирги ўзбек адабий тили. Дарслик. I-қисм. – Тошкент: Ўқитувчи, 1980. – 244-б;

16. J.K. Rowling. Harry Potter and the Prisoner of Azkaban. – London: Bloomsbury publishing. 2014. III. – pp 15-16
17. J.K. Rowling. Harry Potter and the Half-Blood Prince. – London: Bloomsbury publishing. 2014. VI. – p 5
18. J.K. Rowling. Harry Potter and the Deathly Hallows. – London: Bloomsbury publishing. 2014. VII. – p 524